

FEMINIZM G'OYASINING PAYDO BO'LISH SABABLARI VA FEMINSTIK HARAKATNING O'ZIGA XOS BOSQICHLARI

Dilbar Haydarova

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8413865>

Annotatsiya: Ayollar haq-huquqlari, gender tengligi, feminizm kabi masalalar so'nggi vaqtlarda tez-tez muhokama mavzusiga aylanmoqda. Qutblashgan jamiyatimiz bu borada ham turli firqalarga bo'linib ketganini ko'rishimiz mumkin. Ayrimlar o'zbek jamiyatida feminizmga hojat yo'q desa, ayrimlar esa ayollarga nisbatan shu jamiyatda sodir etilayotgan o'nlab tajovuzlarni keltirib, ayollar huquqi har qachongidan ham dolzarbligini ta'kidlaydi. Biz bu maqolamizda feminizm g'oyasi hamda uning tarixiy bosqichlariga to'xtaldik.

Kalit so'zlar: feminizm, Pandora, Sinbod kemasi, Havvo, ibrohimiy dinlar.

Dunyoning ko'plab xalqlaridagi tafakkur tarzi feminizm qachondir "tug'ilishi"ni bashorat qilardi. Sababi mingyillar davomida ikkinchi darajaga tushirilgan odamlar, ya'ni, ayollar qachondir isyon qilishi muqarrar edi. Feminizm g'oyasi haqida so'z yuritishdan oldin, nega feminizmga butun dunyoda ehtiyoj paydo bo'lgani haqida ma'lumot berishga harakat qilamiz. Buning uchun esa mingyilliklar qa'riga nazar tashlash zarur. Miflar bizga uzoq o'tmishdagi ajdodlarimiz dunyoni qanday anglagani haqida tasavvur beradi. Miflardagi ayol obrazini o'rganish esa nega feminizm dunyoga kelganini tushunishga ko'maklashadi. Aksar miflarda ayollar yovuzlik, azob va uqubat sababchisi sifatida talqin qilingan. Yunon afsonalaridagi Pandora obrazi bunga bir namunadir. Nikolay Kunning "Qadimgi yunon xudolari va qahramonlari" to'plamida insoniyat tashvishsiz, kasalliksiz va o'limlarsiz saodatli bir davrda yashayotganida, Zevs ularga ayol qiyofasida ofat yuboradi. Pandora juda go'zal, ammo, shu bilan birga ko'plab kulfatlar sababchisi sifatida talqin qilinadi. U taqiqlangan qutini ochgach, butun dunyoga o'lim, xacticalik, azob-uqubat tarqaladi.

Yoki arab afsonalaridagi "Sinbod kemasi" jumlasini ko'plarga tanish. Bu kemaga ayol kishining chiqishi ta'qiqlangan. Sababi, ayollar baxtsizlik olib keladi, degan fikrga dengizchilar uzoq yillar davomida qattiq ishonishgan.

Qadimgi Hindistonga qaraydigan bo'lsak, mashhur "Ramayana" asarida yovuz Ravanning asirligidan qutilgan malika Sita bokiraligini o'zini otashga tashlab isbotlashi lozim bo'ladi. "Ramayana" va "Mahobhorat"dagi ayrim sahnalar ayollarga doimiy shubha bilan qaralganligiga va, eng yomoni, keyinchalik beva ayol erining mayiti bilan birga tiriklay yoqiladigan odat – sati an'anasiga ishora mavjud.

Yoki ibrohimiy dinlarga nazar tashlasak, "Tavrot" va "Injil"da uchrovchi Momo Havvo taqiqlangan mevani olib, uni Odam Atoga berib, gunoh qilishga undagan obraz sifatida tasvirlanadi. "Tavrot"da, xatto, shunday misralar mavjud: "Homiladorligingda g'oyat azob beraman, Mashaqqat ila bola tug'asan. Ammo, eringni qo'msayverasan, Ering esa hokim bo'ladi sening ustingdan". Bu jumlar Odam va Havoning jannatdan haydalanishidan oldin Xudo tomonidan aytiladi. Mana shu manzara asrlar davomida nasroniylar jamiyatida tug'ruq jarayonida ayollarga hech qanday tibbiy yordam ko'rsatilmasligiga dastak bo'lgan. Xalq orasida "Ayollar tufayli Jannatdan quvilgan ekanmiz, endi ular bu gunohi uchun qiyomatga qadar Xudoning sinoviga duchor bo'lishi lozim", degan xurofot shakllanib qolgan edi. Bu kabi parchalar yuqoridagi fikrlari bilan Simon de Bovuarining quyidagi iqtibosi qaysidir ma'noda haq ekanligini isbotlaydi. ***"Dunyoni tasvirlash ham xuddi dunyoning o'zi kabi erkakning***

asaridir. Ular dunyoni o'z nuqtai nazaridan tasvirlab, mutlaq haqiqatni xiralashtiradilar."

"Feminizm" so'zi lotincha ayol man'nosini bildirgan "femina" so'zidan kelib chiqqan. Asrlar davomida huquq va erkinliklari turli darajada cheklangan ayollar endi o'z haqlarini kuch (ayrim davrlarda qon) bilan olishga urindi. Bu harakat keyinchalik alohida g'oya, ta'limot sifatida butun dunyoga yoyildi.

Har bir davrning o'z qadriyatlari, o'z odamlari va, albatta, o'z muammosi bor. Har bir davr ayollarining umumiy bir da'vosi bo'lgani bilan, o'ziga xos muammosi ham bor. Shu bois ham feminizmi bir qancha bosqich yoinki to'liqlarga bo'lib o'rganish lozim. Sababi turli zamondagi feministlar turfa haq-huquqlar uchun kurashgan. Dunyoda feminizmi 3 bosqichga bo'lishadi. Ularni biz shartli ravishda birinchi, ikkinchi va uchinchi bosqich feminizmi deb ataymiz.

Birinchi bosqich. Birinchi bosqich feminizmi 19-asr oxiri va 1960-yillar orasida harakatga keldi. 1789-yildagi Buyuk fransuz inqilobi ortidan ayollar huquqlari uchun kurash ham o'rtaga chiqdi. Miloddan avvalgi asrlardagi Afinadan tortib, to 19-asrdagi Fransiyada inson huquqlari deganda faqat erkaklar haq-huquqlari tushunilardi. Afinada aholi 3 guruhga ajratilgan: ozod afinaliklar, yarim-ozod kishilar va qullar. Ayollar esa hech bir toifaga mansub emasdi, tabiiyki saylovlarda ham ovoz berish huquqidan mahrum etilgan, faqat ijtimoiy vazifalar yuklatilgan holatda yashardilar. Ularni sotib olish, sotib yuborish va qul qilish mumkin edi. "Insonlar tabiatan ozod va teng tug'iladi", kabi shiorlar ostida erkin saylovlar uchun kurashayotgan Fransiyada ham bunday huquqlar faqat erkaklarga tegishli ekanligini iddao qilinardi. 1791-yildan boshlab Fransiyada ayollar huquqlari uchun ham kurash boshlandi. "Ayolga dorga chiqish "huquqi" berilgani kabi kursi(mansab)ga chiqish haqqi ham berilishi lozimdir", - degan edi ayollar tengligi uchun kurashgan ilk fransuz feministlaridan biri Olimpiya de Guj. Unga nisbatan "axloqsiz, yomon ona, Fransiyaning siyosiy birligi va jamiyat xalovatini buzmoqchi" va, xattoki, "aqldan ozgan" degan ayblovlar qo'yildi. Bu kabi tuhmatlar natijasida u 45 yoshida o'lim jazosiga hukm qilindi. "Chunki Olimpiya de Guj erkak bo'lishga harakat qildi, u tabiatga, qolaversa, Xudoga qarshi chiqdi. Sababi uni ayol qilib tabiat yaratgan va uning yagona vazifasi bola tug'ish hamda yaxshi ona bo'lish. Buni erkaklar emas, tabiat belgilagan" singari qarashlar 19-asr insonlariga shu qadar chuqur singgan ediki, ayollar tomonidan ozgina qarshilik ham misli ko'rilmagan buzg'unchilik sifatida qabul qilinardi. Birinchi bosqichda feministlar eng tamal haq-huquqlar – ta'lim olish, saylovlarda ishtirok etish va mulkka egalik qilish kabi huquqlar uchun qonli kurashdi. Bu harakatning ilk natijalari Yangi Zelandiyada ko'zga tashlandi. 1893-yilda Yangi Zelandiyada ayollar saylovda ovoz berish huquqini qo'lga kiritdi. Bu huquqni eng kech qo'lga kiritgan mamlakat Saudiya Arabistoni bo'lib, 2015-yildan ayollarga ovoz berish huquqi berildi.

Ikkinchi bosqich. Ikkinchi bosqich feminizmi 1960-1990-yilarni o'z ichiga oladi. Ayollar eng birlamchi huquqlariga ega bo'lgach, o'rtaga boshqa masalalar ham chiqa boshladi. Endilikda ayollarning o'z tanasiga o'zlari egalik qilishi, ya'ni tug'ishni nazorat qilish, abort, ishlash, ijtimoiy faollik kabi masalalar dolzarblashib bordi. Qolaversa, ikkinchi bosqichda ayollarning erkaklar tomonidan zulmga uchrashi, oiladagi kamsitilishlar va zo'rlashlarga qarshi keskin qarshiliklar boshlandi. Bunday harakatlar markazida mashhur feminist Simon de Bovuar turar edi. U o'zining bir qancha asarlarida feminizm g'oyalarini tushuntirishga harakat qilgan. Mashhur "Ikkinchi jins" nomli 3 tomli kitobi esa jamiyatda bir portlash kabi qabul qilindi.

Sababi, mana shu kitobida u bir obyektga mavjudlik va mohiyat nuqtai nazaridan qarab, “Ayol tug‘ilmaydi, ayol shakllantiriladi”, degan qarashni izohlagan edi. Ya’ni, biz tushunuvchi ayollik aslida tug‘ma yoki Xudo tomonidan berilgan o‘zgarmas voqealik emas, bu shunchaki jamiyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy konstrukt ekanligini tushuntirishga harakat qilgan.

Uchinchi bosqich. Feminizmning uchinchi bosqichi 1990-yildan 2008-yilga qadar deb aytiladi. Ammo, bu bahsli mavzu, ayrimlar bu davrni ayni kunda ham davom etayotganini ta’kidlaydi. Bu bosqichda ayollar endi ish sharoitlari, oylik maosh kabi masalalarni asosiy planga olib chiqdi. Sababi bir xil ish uchun erkaklarga ayollardan yuqori haq to‘lanar, xususiyl korxonalar imkon qadar erkaklarni ishga qabul qilishdan manfaatdor edi. Ayollarga beriladigan tug‘ruq ta’tili ularning ishchanlik kayfiyatiga ta’sir ko‘rsatishidan ish beruvchilar mamnun emasliklari aniq, albatta. Endi ayollar ham oila, ham karyerani saqlab qolish uchun qator qiyinchiliklarga duch kela boshladi. Uchinchi to‘lqin mana shu va boshqa muammolar ta’sirida yuzaga keldi.

Bugungi kundagi o‘zbek feministlari, asosan, 2-bosqichdagi huquqlari uchun kurashmoqda. Sababi, o‘zbek jamiyatida hali 2-to‘lqindagi haq-huquqlar to‘liq ta’minlangan emas. Davlat darajasida esa farqli holat ko‘zga tashlanadi. Gender tengligi, ayollar huquqlari himoyasiga davlat darajasida e’tibor berilmoqda hamda mahalliy va xalqaro loyihalar amalga oshirilmoqda. Ammo ayollar haq-huquqlari borasidagi asosiy masala o‘zbek jamiyatining o‘zida qolgan. Sababi, ayollar eng ko‘p o‘z oilalarida turli darajadagi zo‘ravonlik qurboni bo‘lmoqda va ayrim vaziyatlarda bu o‘lim bilan yakunlanmoqda. Bunday holatlar esa ayollar huquqi har qachongidan ham dolzarbligini ta’kidlaydi.

References:

1. Nikolay A. Kun, Qadimgi yunon xudolari va qahramonlari. Zarafshon, samarqand – 2005.
2. Evelyn Fox Keller, Toplum Cinsiyeti ve Bilgisi Üzerine Düşünceler, Çev. Ferit Burak Aydar, İstanbul, Metis Yai. – 2007.
3. Fatmagül Berktaş, Tarihin Cinsiyeti, İstanbul, Metis Yayınları – 2003.
4. Pervin Erbil, Kibele'den Pandora'ya Kadın'ın Tarihi Yenilgisi, Ankara, Arkadaş Yayınları – 2007.
5. Nancy C.M. Hartsock, Foucault on Power: A Theory for Women, Feminism/Postmodernism Linda J. Nicholson (Ed.), New York, Routledge, 1990. Foucault, M. (1984).
6. Women's time. Chicago: The University of Chicago Press.
7. Jenny Williamson va Genn McMenemy. Women of Myth. – 2023.
8. <https://www.britannica.com/topic/feminism>